

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.T.08.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABDIRAXMANOVA DONO IKRAMOVNA

**METALLASHTIRILGAN BO‘YOQLARNI MODIFIKATSIYALASH
ORQALI QADOQLASH MAHSULOTLARINI CHOP ETISH SIFATINI
YAXSHILASH**

**05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika
tizimlari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
science**

Abdiraxmanova Dono Ikramovna

Metallashtirilgan bo‘yoqlarni modifikatsiyalash orqali qadoqlash
mahsulotlarini chop etish sifatini yaxshilash 3

Абдирахманова Доно Икратовна

Улучшение качества печати упаковочной продукции модификацией
металлизированных красок 25

Abdirakhmanova Dono Ikramovna

Ensuring the quality of printing packaging products by modifying metallic
inks 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABDIRAXMANOVA DONO IKRAMOVNA

**METALLASHTIRILGAN BO‘YOQLARNI MODIFIKATSIYALASH
ORQALI QADOQLASH MAHSULOTLARINI CHOP ETISH SIFATINI
YAXSHILASH**

**05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika
tizimlari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5093 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babaxanova Xalima Abishevna
Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shin Illarion Georgiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Gromyko Irina Grigorevna
texnika fanlari nomzodi, dotsent
(Belarus Respublikasi)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01-raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 17 aprel kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjaxon – 5). Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-036-17; e-mail: (titlp_info@edu.uz. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 1-222- xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (230-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjaxon k. 5-us. Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 4-apreldagi 230-raqamli ilmiy kengashning (2025 yil 4-apreldagi 230-raqamli ilmiy kengashning)



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi,
kengash raisi t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi,
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Nakimov
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda matbaa sanoatining shiddatli rivojlanishi bosma mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan tavsiflanib, u statistika ma'lumotlariga ko'ra 52 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi. Ular orasida katta segment – 35% dan yuqori ulush qadoqlash mahsulotlariga taalluqli hisoblanadi, chunki istalgan sanoat mahsuloti tashish, saqlash va sotishda shikastlanish va yo'qotishlardan saqlash talab qilinadi. Bundan tashqari, sifatli qadoq tovarni ilgari surishda reklama elementi hisoblanadi. Zamonaviy qadoqlash texnologiyalaridan, turli bosma usullari va turlarini uyg'unlashtirishdan foydalanish sifatning barqarorligini hamda qalbakilashtirishdan himoya elementlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu muhim jihat hisoblanadi, chunki statistika ma'lumotlariga ko'ra yetakchi jahon brend kompaniyalari AQSH (20%); Italiya (15%); Shveysariya va Fransiya (12%); Germaniya va Yaponiya (8%) mahsulotlarini qalbakilashtirish hajmi ortib bormoqda. Metallashtirilgan bo'yoqlar bilan chop etish qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda samarali va tejamkor chop etish usuli hisoblanib, u metall effektini samarali imitatsiya qiladi, adadni chop etishga tayyorlashda maxsus operatsiyalar va bosma uskunasi qo'shimcha sozlamalariga e'tibor berilmoqda.

Jahonda zamonaviy bosma usullaridan va UB-bo'yovchilar, IQ-bo'yovchilar, termosezgir bo'yovchilar, fluoressent, yorug'likka sezgir bo'yoqlar, mikrografika, gilyoshir elementlar, yashirin tasvir, tangir to'rlari, bo'rtma tisneniye, folga qoplash, gologramma, o'yish, laminatsiyalash, laklash kabi himoya turlaridan foydalanishda qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda metallashtirilgan bo'yoqlar bilan bir bosqichli chop etish texnologiyalari ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan bo'lib, ular o'z navbatida chop etish usuliga va bosiluvchi materialning yuza xususiyatlariga bog'liq holda bo'yoq ishlab chiqarish hajmini oshirishni, ularning tarkibini doimiy takomillashtirib borishi hisobiga bosma-texnik xossalarini yaxshilash katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikada zamonaviy chop etish usullari va chop etish jarayonlarining avtomatlashtirilgan oqim tizimlaridan foydalanishda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan bosma mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha majmuaviy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatini davom ettirib, matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifani amalga oshirishda sezilarli natijalarga erishilgan bo'lib, ulardan biri matbaa mahsulotlarining tannarxini pasaytirish uchun ichki bozorni mahalliy xomashyo bilan ta'minlash maqsadida import o'rnini bosuvchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida Farmoni

xomashyo (qog‘oz, karton, bo‘yoq va yelimlovchi moddalar) ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini ishlab chiqish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi va 2020 yil 16 martdagi PQ-4640-son «Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda qadoqlash mahsulotlarini chop etish usullari va pardozlash turlari, bo‘yoqning bosiluvchi materialning yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni mexanizmi va kinetikasi haqidagi jahon ilm-faniga M.I.Kulak, Ye.D.Klimova, A.N.Raskin, I.V.Romeykov, N.F.Yefremov, L.G.Varepo, Ye.S.Kazarsev, D.M.Medyak, M.S.Kolesova, V.A.Bakanova, Wei Shen, O.A.Budnikova, A.S.Borisov va h.k. lar sezilarli hissa qo‘shganlar. Bosma bo‘yoqlari xossalari va tarkibining chop etish jarayonining barqarorligiga va bosma sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar L.A.Kozarovitskiy, B.N.Shaxkeldyan, L.A.Zagarinskaya, G.N. Inyoung Kim, Fatemeh Ghadiri, Kekelidze, H.A. Nechiporenko, Adnan Shahzaib, A. A. Pojarskiy, YE. S. Kazarsev, M. A. Bozoyan, O. Y. Chapligina, G.I.Turchinova, A. V. Berdovshikova, D.I.Vlasenko, S.G.Vlasenko va h.k. larning ishlarida amalga oshirilgan.

Respublikada muqobil xomashyodan matbaa materiallarini ishlab chiqarish, bosma mahsulotlari sifatini oshirish, jarayonlarning parametrlari va materiallarning xossalari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlar X.A.Alimova, O.Raximov, A.K.Bulanov, X.A.Babaxanova, U.J.Yeshbayeva, I.A.Bulanov, Z.K.Galimova, A.A.Djalilov, O.D.Xaqnazarova, D.R.Safayeva, M.M.Abdunazarov, A.A.Sadriddinov va h.k. lar tomonidan amalga oshirilgan.

Ta’kidlash kerakki, ko‘p sonli tadqiqotlar va ilmiy ishlarning ijobiy natijalariga qaramasdan, qalbakilashtirishdan himoyalash uchun turli chop etish usul va turlari uyg‘unligidan foydalanib qadoqlash mahsulotlari sifatini oshirish, metallashtirilgan bo‘yoq tarkibi va xossalarning chop etish sifatiga ta’sirini aniqlash, sifatli nusxalarni olish maqsadida ofset bosmada turli tarkibli metallashtirilgan bo‘yoq va bosiluvchi materialning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonining o‘ziga xosliklarini aniqlash jarayonlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari tematik rejalari bilan bog‘liq va VA-OT-A3-05 «O‘zbekiston Respublikasining sellyuloza-qog‘oz va matbaachilik sanoati uchun ikkilamchi tolali materiallardan qog‘oz olish

texnologiyasini takomillashtirish» mavzusi bo'yicha amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi metallashtirilgan bo'yoqlarni modifikatsiyalash yo'li bilan qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qadoqlash mahsulotlarini chop etishda bo'yoq va bosiluvchi materialning o'zaro ta'sirlashuv jarayoni ilmiy tadqiqotlar bo'yicha tahliliy sharhlash va muqobil komponentlardan metall bo'yoqlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganish;

IQ-spektroskopiya usuli bilan gilos daraxti qatroni qo'shib olingan metallashtirilgan bo'yoqning tarkibi va xossalarini tahlil qilish;

spektrodensitometrik va kolorimetrik usullar bilan gilos daraxti qatroni qo'shib olingan metallashtirilgan bo'yoq tarkibi va xossalarining bosma sifatiga ta'sirini tadqiq qilish;

SEM va EDS-tahlil va matematik statistika usullaridan foydalanib ofset bosmada gilos daraxti qatroni qo'shib olingan metallashtirilgan bo'yoq va bosiluvchi materialning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonining o'ziga xosliklarini aniqlash;

matbaachilik korxonalarida muqobil xomashyo qo'shib olingan bo'yoqlardan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti turli tarkib va kompozitsiyali metallashtirilgan bo'yoqlar, ofset bosma usulida chop etilgan ko'p bo'yoqli nusxalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti metallashtirilgan bo'yoqlar bilan chop etish texnologik jarayoni, metallashtirilgan bo'yoqning tarkibi va xossalari hamda chop etish sifati orasidagi o'zaro bog'liqlik kinetikasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida nusxalarning sifat tavsifnomalarini baholashning standart va zamonaviy usullari – IQ-spektroskopik, spektrodensitometrik usullardan, tajriba natijalarini qayta ishlash uchun matematik modellash usullaridan foydalanilgan.

Tabqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qadoqlash mahsulotlarini chop etish uchun gilos daraxti qatronidan foydalanish asosida metallashtirilgan ofset bo'yog'ini olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

metallashtirilgan bo'yoqlarda yopishqoqlikni va mustahkamlanish vaqtini kamaytirish uchun gilos daraxti qatronini qo'shish asosida bog'lovchi modda olish usuli ishlab chiqilgan;

metallashtirilgan bo'yoq bosma-texnik xossalarining gilos daraxti qatronining tarkibi va qo'shilish miqdoriga bog'liqligi spektrodensitometrik usul yordamida aniqlangan;

qadoqlash mahsulotlarini chop etishda sifatni ta'minlash uchun bo'yoqning tarkibi, xossalari va tuslarning o'sish ko'rsatkichi orasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyati regression tenglamalar qurish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gilos daraxti qatroni qo'shib metallashtirilgan ofset bo'yoqlarini olishning ishlab chiqilgan usuli ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta'minlashga va mahsulotlarning assortimenti va hajmini ko'paytirishga xizmat qiladi;

gilos daraxti qatroni qo‘shib olingan metallashtirilgan bo‘yoqning aniqlangan ratsional tarkibi va xossalari nusxada tusalarning o‘shishi minimal bo‘lagi holda chop etish sifatini ta‘minlaydi;

olingan matematik model berilgan massaga ega qog‘ozda chop etishda ma‘lum tarkibli bo‘yoqdan foydalanishda chop etish sifatini ta‘minlashga imkon beradi, qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda moddiy va energiya harajatlarini qisqartiradi.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilingan muammo sohasida nazariy va eksperimental tadqiqotlarning mosligi, o‘tkazilgan aprotatsiyalar va ishlab chiqarishga joriy etilgan natijalarning ijobiyliigi, shuningdek, natijalarning taqqoslanganligi, ularning ma‘lum baholash mezonlari bo‘yicha adekvatligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ofset bosma uchun gilos daraxti qatronini qo‘shib metallashtirilgan bo‘yoq olish usulining ishlab chiqilganligi, chop etish sifatini ta‘minlash uchun bo‘yoq ratsional tarkibining aniqlanganligi, metallashtirilgan bo‘yoqning bosiluvchi materialning yuzasi bilan o‘zaro ta‘sirlashuvi jarayonining o‘ziga xosliklari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan ifodalanadiki, gilos daraxti qatronini qo‘shib metallashtirilgan bo‘yoq olishning ishlab chiqilgan usuli ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta‘minlashga va mahsulotlarning assortimenti hamda hajmining ortishiga xizmat qiladi, metallashtirilgan bo‘yoqning ma‘lum ratsional tarkibi chop etish sifatini ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gilos daraxti qatroni qo‘shib olingan metallashtirilgan bo‘yoqlarning bosiluvchi materialning yuzasi bilan o‘zaro ta‘sirlashuvi xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

gilos daraxti qatronidan bog‘lovchi olish usuliga Belorussiya Respublikasi intellektual mulk agentligining ixtiro patenti olingan (BY №20230298). Natijada mahalliy homashyodan olingan metallashtirilgan ofset bosma bo‘yoq uchun bog‘lovchi komponenti bo‘yoqning yopishqoqligi va qog‘oz yuzasida qurish tezligini oshirish imkoniyati yaratilgan;

gilos daraxti qatronini qo‘shib metallashtirilgan bo‘yoq «Credo Print» MCHJ va «Standart Poligraf servic» MCHJ korxonalarida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025 yil 7 yanvardagi 06-02-16-93-son ma‘lumotnomasi). Natijada, gilos daraxti qatronini kiritish bilan metallashtirilgan bo‘yoqni joriy etish ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta‘minlashga va mahsulotlarning assortimenti va hajmini oshirishga yordam beradi, metallashtirilgan bo‘yoqning ma‘lum bir ratsional tarkibi standart doirasida bo‘lgan 2,19 qiymatga erishilgan.

Tadqiqot natijalari aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-texnik, shu jumladan 5 ta xalqaro anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 2 ta maqola xalqaro Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qadoqlash mahsulotlarini chop etishda bo'yoq va bosiluvchi materialning o'zaro ta'sirlashuv jaryonlari sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar sharhi va adabiyot manbalari tahlili keltirilgan. Qalbakilashtirishdan himoyalash maqsadida qadoqlash mahsulotlarini chop etishda turli chop etish usullari va turlari uyg'unliklaridan foydalanish bo'yicha chop etish jarayonlari sohasidagi olimlarning ish tajribalari o'rganilgan va umumlashtirilgan. Bosma mahsulotlari turi, bosma uskunasi parametrlari va bosiluvchi materialning yuza xususiyatlariga bog'liq holda bosma bo'yog'ini to'g'ri tanlash va qo'llashda qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatining ta'minlanishi aniqlangan. Qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini oshirish maqsadida metallashtirilgan bo'yoq va bosiluvchi materialning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonlarining o'ziga xosliklarini tadqiq qilish yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **“Ofset bosma uchun metallashtirilgan bo'yoqning tarkibi va xossalari tadqiqi”** deb nomlangan ikkinchi bobi muqobil komponent qo'shib metallashtirilgan bo'yoq olish usulini ishlab chiqishga bag'ishlangan. IQ-Furye spektroskopiya usulidan foydalanishda metallashtirilgan bo'yoqning innovatsion tarkibi aniqlangan. Metallashtirilgan bo'yoqning struktura-mexanik va bosma-texnik xossalari tadqiq qilingan. Turli bosma usullari va turlarining uyg'unligidan foydalanishda qadoqlash mahsulotlarini qalbakilashtirishdan himoyalash mumkin bo'ladi, chunki bitta himoya texnologiyasini qalbakilashtirish oson (1-rasm).



1-rasm. Qadoqlash mahsulotlarini qalbakilashtirishdan himoyalash turlari


Adadni chop etishga tayyorlashda maxsus operatsiyalar va bosma uskunasini qo‘shimcha sozlash talab qilmaydigan va metallarni muvaffaqiyatli imitatsiya qiluvchi xira yoki yaltiroq metallashtirilgan bo‘yoqlardan foydalanib qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish chop etishning muqobil va eng arzon usuli hisoblanadi.

Bo‘yoqning xossalari chop etish jarayonining barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanib, bo‘yoqning miqdoriy tarkibi va tayyorlash usuliga bog‘liq holda uning xossalari turlicha bo‘lishi mumkin.

Muqobil xomashyodan matbaa materiallarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda muhim va zaruriy yechimlardan hisoblanadi. Mahalliy materiallardan mahsulotlarni ishlab chiqarish importni qisqartirishga, shuningdek, davlatning valyuta zahiralaridan oqilona foydalanishga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning barchasi yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda muhim vazifalarning yechimi hisoblanadi.

Ma’lumki, bog‘lovchi moddani o‘zgartirish yo‘li bilan bo‘yoqning xossalarini sozlash mumkin. Bog‘lovchilar sifatida kanifol hosilalari va fenolformaldegid hosilalari, siklokauchuk, alkid smolalar, bitum va h.k. lardan foydalaniladi. Qarag‘ay daraxti smolasidan olinadigan tanqis kanifoldan keng foydalanish va tayyorlashdagi mehnat sig‘imi katta texnologik jarayon ofset bosma bo‘yog‘ining tarkibi uchun muqobil xomashyoni izlashni talab qiladi.

Bu muammoni hal qilish uchun mahalliy o‘simlik xomashyosi asosida metallashtirilgan bo‘yoq tarkibi taklif qilingan bo‘lib, u gilos daraxti qatroniga, zig‘ir va soya moylari oliflariga ega, shuningdek, rangni yaxshilash uchun mikrokalzit, alyuminiy kukuni qo‘shilgan, sikkativ sifatida alkid lakidan foydalanilgan. O‘simlik urug‘larini presslash usuli bilan ajratib olishning soddaligi va spetsifik xidining kamligi o‘simlik moyidan foydalanishning ustuvorliklaridan biri hisoblanadi, bu ekologik nuqtai nazardan muhim hisoblanadi.



2-rasm. Ofset bo‘yog‘ini olishning texnologik shakli

Bosma bo‘yoq uchun xomashyo quyidagi texnologiya bo‘yicha tayyorlandi: elektrqizdirgich va 47-150 ayl/daq aralashtirgich bilan jihozlangan yoriq tipdagi aralashtirgichda 70-80°C xaroratda zig‘ir va soya moyi, erituvchi va alkid lak aralashmasida gilos daraxtidan qatron dispersiyalandi (2-rasm). To‘liq erish jarayoni amalga oshgandan so‘ng tarkibda ko‘rsatilgan miqdorda mikrokalsit, alkid laki qo‘shildi. Kompresor yordamida suspenziya 100-110°C xaroratda oksidlandi. Olingan bog‘lovchi tarkibiy miqdoridagi alyuminiy kukuni bilan aralashtirildi (2-rasm).

Qadoqlash mahsulotlarini chop etish uchun bosma uskunasini va materiallarini tayyorlash kabi keyingi jarayonlar texnologik shakl bo‘yicha amalga oshirildi.

Metallashtirilgan bo‘yoqning tarkibini identifikatsiyalash maqsadidagi tadqiqotlarda IQ-Furye spektroskopiya usuli qo‘llandi. Xitoyda ishlab chiqarilgan bo‘yoq taqqoslash uchun olindi. Taqqoslanayotgan IQ-spektrlarda 1731 (1501) va 2207 (2193) cm^{-1} da maksimumga ega bo‘lgan siklik angidrid guruhi C=O bog‘ining tavsifli yutilish yo‘lkalari mavjud. Bundan tashqari, ikkala spektrlarda ham smolali kanifol kislotalari fenantren skeletining metilen va metil guruhlari S–N-bog‘larining simmetrik va asimmetrik valent tebranishlariga javob beruvchi 2853 va 2954 cm^{-1} yo‘lkalar, 1731 cm^{-1} – to‘yinmagan kislotalar uchun COOH karboksil guruhida C=O-guruhi valent tebranishlarining tavsifli yo‘lkasi; 1457, 1377, 1363 cm^{-1} – smolali kanifol kislotalari fenantren skeletining metilen va metil guruhlari C–H-bog‘larining deformatsion (yassi qaychisimon) tebranishlarini tavsiflovchi yutilish yo‘lkalari guruhi; 1259 cm^{-1} – karboksil guruhda C–O-bog‘larning valent tebranishlari mavjud.

IQ-spektrlar ma‘lumotlari asosida gilos daraxti qatronidan olingan bo‘yoqning tarkibi import bo‘yoqning (Xitoy) tarkibiga o‘xshashligini tasdiqlash mumkin.

Tarkibida gilos daraxti qatroni mavjud bo‘lgan bosma bo‘yog‘ining struktura-mexanik xossalari tadqiq qilish bog‘lovchi modda, pigment, qo‘shimchalar miqdori kompozitsiyasining to‘g‘ri tanlanganligini tavsifladi, chunki qovushqoqlik, yopishqoqlik, oquvchanlik, peretir (yirik zarralar o‘lchami) darajasi qiymatlari Xitoyda ishlab chiqarilgan bo‘yoqning qiymatlariga yaqin va standartlar ko‘rsatkichlari chegarasida (1-jadval).

1-jadval

Bosma bo‘yoqlarining struktura-mexanik xossalari

Ko‘rsatkichlar	Xitoyda ishlab chiqarilgan	Mahalliy xomashyodan	GOST bo‘yicha
Bo‘yoqning qovushqoqligi, Pa·s (GOST 9070-75)	85	94	70-100
Peretir darajasi, mkm (GOST 52753-2007. ISO:1524:2000)	22	20	15-70
Bo‘yoqning yopishqoqligi	kalta va yopishqoq	kalta va yopishqoq	kalta va yopishqoq
Bo‘yoqning oqishi, mm	70	79	-

Bo‘yoqning intensivligi qaytarilgan yorug‘likda ET 120 HD spektrodensitometri yordamida aniqlangan optik zichlik qiymatlari bo‘yicha

baholandi. Metallashtirilgan bo‘yoqlarning barqarorligi shimmaydigan yuzaga surtilgan yupqa bo‘yoq qatlami bo‘yicha metall sharchaning yumalab o‘tishiga asoslangan GOST 6591 bo‘yicha baholandi. Aniqlandiki, muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoq kamroq qurish vaqtiga ega, bu ofset bosmada zarur shartlardan biri hisoblanadi (2-jadval).

Tadqiq qilinayotgan bo‘yoq qatlamlarining tiralishga chidamliligini aniqlash uchun ISO 1518 usulidan foydalanildi, bu yerda ma’lum yuklama bilan tushirilgan stretch-qalamdan foydalanildi. 30-45⁰ burchak ostida yoritishda tasmaning butun uzunligi bo‘yicha hech qanday tiralishlar aniqlanmadi va test qoniqarli bajarildi.

2-jadval

Bosma bo‘yoqlarining bosma-texnik xossalari

Ko‘rsatkichlar	Bo‘yoqlar	
	Xitoyda ishlab chiqarilgan	Mahalliy xomashyodan
20 ⁰ C da qurish vaqti, daqiqa	2-3	2-2,5
Optik zichlik, Δ	0,40-0,45	0,43-0,48

Chop etishning bir turdaligi, ya’ni bir tekis tus maydonlarida qorayish fluktuasiyalarining taqsimlanishi o‘rtacha kvadratik og‘ish (farqlanish) kattaligi qiymatlari bo‘yicha miqdoriy tavsiflandi (3-jadval).

3-jadval

Chop etishning bir turliligini aniqlash

No	Xitoyda ishlab chiqarilgan	Mahalliy xomashyodan
$\sum D_i$	4,76	5,15
o‘rtacha \bar{D}	0,47	0,51
O‘rtacha kvadratik og‘ish σ_D	0,0172	0,0277
Variatsiya koeffitsiyenti	0,0365	0,0543


3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, metallashtirilgan bo‘yoqda (Xitoy) chop etilgan nusxalarda optik zichlikning o‘rtacha qiymati 0,47, bog‘lovchi modda sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan metallashtirilgan bo‘yoq bilan chop etishda zichlik o‘rtacha 0,51, bunda qiymatlar 0,8 dan kichik, variatsiya koeffitsiyentlari 30% dan past, ya’ni chop etishning bir turliligi ta’minlangan.

Bundan kelib chiqadiki, metallashtirilgan bo‘yoq olishning taklif qilingan usuli samarali, sodda va tejamkor hisoblanadi. Bosma bo‘yog‘ini ishlab chiqarishda gilos daraxti qatronidan foydalanish xomashyo muammosini hal qiladi va matbaachilik sanoatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Bo‘yoq tarkibi va xossalari**ning chop etish sifatiga ta’siri» deb nomlanuvchi uchinchi bobi bo‘yoq tarkibi va xossalari bo‘yoqning qabul qilinishiga, bo‘yoqning ko‘chirilishiga, chop etishda rang tavsifnomalarining farqlanishiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bo‘yoq va bosiluvchi materialning o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni tadqiq qilingan, metallashtirilgan bo‘yoqlar bilan chop etishda gradatsion o‘tish baholangan.

Bog'lovchi moddaning optimal foizli miqdorini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida IGT CB 100 coloequipment Zhongshan Nuobang sinov nusxasini chop etish qurilmasida Daihan Ink (Janubiy Koreya) Vidan Silver 877 C, Inks Kingswood Professional (Xitoy) Pantone Silver 877 va bog'lovchi sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan metallashtirilgan bo'yoqlardan foydalanib ofset va bo'rlangan qog'ozlarda plashkalar chop etildi.

Chop etilgan plashka-nusxalarni vizual tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 3%, 4%, 5% miqdorda gilos daraxti qatroni qo'shilgan bo'yoqlar bilan chop etishda va taqqoslash uchun olingan bo'yoqlar bilan chop etishda ofset qog'ozida rangning bir xil intensivligi, yaxshi shimiluvchanlik ta'minlangan (3-rasm). Bo'rlangan qog'ozda rangning yuqori intensivligi, lekin bo'yoqning kam shimilishi ta'minlangan.



a – mahalliy xomashyodan olingan bo'yoq (3%- miqdorda gilos daraxti qatroni qo'shilgan);
 b – bo'yoq (Koreya);
 v – bo'yoq (Xitoy)

3-rasm. Ofset va bo'rlangan qog'ozlarda chop etilgan plashka-nusxalarning mikrosuratlari

4-jadval

Nusxalarning optik zichliklari qiymatlari

Qog'oz	Metallashtirilgan bo'yoqlar				
	gilos daraxti smolasi qo'shilgan			Pantone Silver 877 (Xitoy)	Pantone 877 C (Koreya)
	5%	4%	3%		
Ofset	0,62	0,68	0,70	0,49	0,51
Bo'rlangan	0,30	0,38	0,45	0,58	0,57

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, gilos daraxti qatroni 3% miqdorda qo'shilganda nusxada pigmentning tezkor va yuqori darajada mahkamlanishi va zaruriy yaltiroqlik ta'minlanadi.

Bo'yoq tarkibining bo'yoq qatlamining bo'linishiga ta'siri darajasini baholash uchun quyidagi formula bo'yicha % da ko'chirish koeffitsiyenti aniqlandi:

$$K_{per} = \frac{q_{ott}}{q_f} \times 100\%$$

Nusxaga o'tgan bo'yoq miqdorining (q_{ott}) chop etishga qadar qolipdagi bo'yoqning miqdoriga (q_f) nisbati bo'yoq ko'chirilishini tavsiflaydi.

Bo'yoqning ko'chirilishini baholash uchun ajralish koeffitsiyenti V dan foydalanildi, u nusxadagi bo'yoq miqdorining chop etishdan so'ng qolipda qolgan bo'yoqning miqdoriga nisbati bilan aniqlandi.

$$V = \frac{q_{ott}}{q_f - q_{ott}}$$

Olingan qiymatlar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Bo‘yoqning o‘tishini aniqlash

Qog‘oz turi	Qolipdagi bo‘yoq massasi, g		Nusxadagi bo‘yoq massasi, g	Ajralish koeffitsiyenti	Bo‘yoq o‘tishi, %
	chop etishgacha	chop etishdan keyin			
Pantone Silver 877 (Xitoyda ishlab chiqarilgan)					
yaltiroq	0.762	0.448	0.314	0,70	41.2
ofset	0.554	0.303	0.251	0,82	45.3
muqobil xomashyodan olingan					
yaltiroq	0.413	0,208	0,205	0,98	49.6
ofset	0.407	0.186	0.221	1,19	54.2

Muqobil xomashyodan olingan bo‘yoqdan foydalanishda ofset qog‘ozida bo‘yoq ko‘chirish 54,2%ni, yaltiroq qog‘ozda 49,6%ni tashkil qildi (5-jadval). Ofset qog‘oz yuzasining g‘ovakli tuzilmasida bo‘yoq ko‘chirish yaltiroq yuzaga nisbatan 8% ga ko‘proq, bu holat qog‘ozning mikrogeometriyasi (silliqligi/g‘ovakligi) va shimish qobiliyati bilan tushuntiriladi. Ajralish koeffitsiyentining qiymatlari qog‘ozga shimilgan bo‘yoqning miqdori bo‘yicha bo‘yoq va bosiluvchi material yuzasining o‘zaro ta’sirlashuvi xususiyatlarini tavsiflaydi. Gilos daraxti qatronining qo‘shilishi bilan bo‘yoqning oquvchanligi ofset silindri va qog‘ozning yuzasi orasida bo‘yoq qatlamining ajralishi (bo‘linishi) ga xizmat qildi, ofset silindrining yuzasiga nisbatan, nusxadagi bo‘yoqning miqdori ko‘proq (5-jadval). Bo‘yoqning qabul qilinishi va bo‘yoqning ko‘chirilishini nazorat qilish bilan bir qatorda chop etishda rang tavsifnomalarining farqlanishlari ham baholandi. Farqlanish va variatsiyaga qo‘yimlar ISO 12647-2 standartining so‘nggi tahririga muvofiqlikda aniqlandi. Buning uchun plashkalar kolorimetrik o‘lchandi, foydalanilgan YLD-200 kolorimetri eng katta qiymatni beradigan kanalga sozlandi va plashkalarining optik zichliklari o‘lchandi (6-jadval).

6-jadval

Muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoqda ofset va bo‘rlangan qog‘ozlarda chop etilgan plashkalarining kolorimetrik tavsifnomalari

O‘lchovlar	L	a	b	L	a	b	Rang farqi	
							ofsetda	bo‘rlanganda
1	74,99	-4,95	0,08	90,84	0,27	-1,61	1,48	1,52
2	76,79	-4,47	-0,10	71,29	-5,88	0,75	3,09	0,71
3	74,83	-4,9	0,22	71,35	-5,78	0,67	1,27	1,09
4	68,95	-5,4	-0,02	70,98	-5,38	0,74	4,9	0,68
5	71,87	-4,88	-0,42	73,1	-5,3	-0,22	1,93	0,46
6	73,74	-4,45	-0,71	72,84	-5,27	-0,07		
7	74,00	-5,05	-0,71	73,5	-5,16	-0,2	0,64	1,59
8	70,61	-5,73	-0,35	70,54	-6,12	0,14	3,39	1,51
9	74,39	-4,92	-0,61	71,78	-5,84	-0,05	0,8	1,68
O‘rtacha qiymat							2,19 (1,51)	1,16 (1,32)
O‘rtacha kvadratik og‘inish σ_D							2,01	0,20
Variatsiya koeffitsiyenti							0,92	0,12

6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, metallashtirilgan bo‘yoqda (Xitoy) chop etilgan nusxalarda rang farqlanishi koeffitsiyentining qiymatlari ofset qog‘ozida o‘rtacha 1,51, bog‘lovchi modda sifatida gilos daraxtining modifikasiyalangan qatronidan foydalanib tayyorlangan metallashtirilgan bo‘yoqlarda chop etishda optik zichlik o‘rtacha 2,19. Bunda chop etish yo‘nalishida va ko‘ndalang yo‘nalishda rang tavsifnomalarining o‘zgarishi bo‘rlangan qog‘ozda kamroq. Variatsiya koeffitsiyentlari 3÷5 dan past, ya‘ni farqlanishlar sezilarsiz, vizual tarzda ko‘rinmaydi.

Ofset bosmada bo‘yoq va bosiluvchi materialning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonini tadqiq qilish uchun «Credo Print» MCHJ ishlab chiqarishi sharoitida «Computer-to-Plate» texnologiyasi bo‘yicha Suprasetter A75HDX qolip tayyorlash uskunasi chop etish jarayonining sifati va barqarorligini ta‘minlovchi AGFA raqamli termal plastinalarida bosma qoliplari tayyorlandi. Metallashtirilgan bo‘yoqlar yordamida tasvirlarning hosil qilinish sifatini obyektiv va aniq nazorat qilish uchun matnli va rasmi axborotga ega bo‘lgan test-shkala tayyorlandi (4-rasm).

Chop etish «CredoPrint» MCHJ korxonasining ishlab chiqarish sharoitida Speedmaster-74 (Germaniya) varaqli ofset bosma uskunasi amalga oshirildi. Chop etish uchun bog‘lovchi modda sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan metallashtirilgan bo‘yoq va Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘idan foydalanildi.




4-rasm. Obyektlarga ega test-shkalaning raqamli asl nusxasi

Optik zichlikning densitometr bilan o‘lchangan qiymatlari bo‘yicha massasi 130 g/m², 170 g/m² va 210 g/m² bo‘lgan bo‘rlangan qog‘ozlarda gradatsion o‘tishlarning chiziqli ravonligi, kulrang rangning hosil qilinishi aniqligi va to‘laligi baholandi (7-jadval va 5-rasm).


130 g/m² massali bo‘rlangan qog‘ozda turli bo‘yoqlardan foydalanishda optik zichliklar qiymatlari

Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘i				Mahalliy xomashyodan olingan bo‘yoq			
%	K	%	K	%	K	%	K
1	0.08	0	0.08	1	0.08	0	0.07
3	0.08	2	0.09	3	0.08	2	0.08
5	0.09	4	0.09	5	0.09	4	0.08
7	0.10	6	0.10	7	0.09	6	0.09
15	0.13	10	0.12	15	0.11	10	0.10
35	0.22	30	0.19	35	0.18	30	0.16
55	0.32	50	0.29	55	0.26	50	0.24
75	0.44	70	0.41	75	0.33	70	0.31
93	0.52	90	0.51	93	0.40	90	0.39
95	0.53	94	0.52	95	0.41	94	0.40
97	0.53	96	0.53	97	0.42	96	0.43
100	0.54	100	0.53	100	0.43	100	0.42
Kulrang bo‘yicha muvozanat				Kulrang bo‘yicha muvozanat			
40	0.26			40	0.22		



5-rasm. Mahalliy xomashyodan tayyorlangan bo‘yoq va Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘ida chop etishda optik zichlik qiymatlarining o‘zgarishi diagrammasi

7-jadval va 6-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bog‘lovchi sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan bo‘yoqlarning bosma-texnik xossalari bo‘yoq qatlamining qalinligi va bo‘yoqdagi pigmentning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lgan optik zichlik qiymatlari bo‘yicha TT004.03 texnik talablariga moslikni ta’minladi. Shunday qilib, optik zichlik qiymatlari nusxada bo‘yoq o‘tishining gradatsion ravonligi va to‘yinganligini tavsiflagan.




6-rasm. Muqobil xomashyodan tayyorlangan metallashtirilgan bo‘yoq va Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘i bilan chop etishda turli qog‘ozlarda tuslar o‘tishining o‘zgarishi diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki (6-rasm), Pantone Silver 877 (Xitoy) metallashtirilgan bo‘yoqlari bilan chop etilgan tuslar o‘shining o‘rtacha qiymatlari massasi 130 g/m² bo‘lgan bo‘rlangan qog‘ozda o‘rtacha 7.59 (40% maydon uchun) va 18.89 (80% maydon uchun), bog‘lovchi sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan metallashtirilgan bo‘yoqda chop etishda esa o‘rtacha 11.74 (40% maydon uchun) va 11.42 (80% maydon uchun).

Dissertatsiyaning «Ofset bosmada metallashtirilgan bo‘yoq va bosiluvchi materialning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonlarining o‘ziga xosliklari» deb nomlangan to‘rtinchi bobi SEM va EDS-tahlildan foydalanib qog‘ozning yuza qatlamida bosma bo‘yog‘i elementlarining taqsimlanishini o‘rganishga, matematik modellashtirish asosida bo‘yoq va bosiluvchi materialning o‘zaro ta’sirlashuv jarayonini optimallashtirishga bag‘ishlangan.


JSMIT-200 rastri elektron mikroskopida ko‘ndalang qirqimlar tasvirlari bo‘yicha bo‘yoqning qog‘ozning yuzasiga shimilishi chuqurligi baholandi (7-rasm).




1, 2, 3 – Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘ida;
4, 5, 6 – muqobil xomashyodan olingan bo‘yoqda

7-rasm. Nusxalarning 400x, 300x; 200x marta katalashtirilgan ko‘ndalang qirqimlarining SEM-tasvirlari

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tasvirning to‘q qismi bo‘yoq qatlamiga mos keladi, bunda Pantone Silver 877 (Kitay) metallashtirilgan bo‘yoqlari bilan chop etishda bo‘yoq qatlamining qalinligi 11.5 mkm ni va muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoqda chop etishda 12 mkm ni tashkil qiladi. Ko‘rib chiqilayotgan bo‘yoqlarning element tarkibini taqqoslash (8-9-rasm) shuni ko‘rsatdiki, muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoqda uglerod, kislorod, kalsiy kabi elementlar rentgen nurlanishlari signali intensivligining past darajasi aniqlandi.



8-rasm. PantoneSilver 877 (Xitoy) bo‘yog‘i bo‘yoq elementlarini kartirlash mikrosuratlari



9-rasm. Muqobil xomashyodan tayyorlangan elementlarini kartirlash mikrosuratlari

Bunda xlor mavjud emas, lekin kremniy mavjud. Bosma bo‘yoqlarining tarkibida kremniyning mavjudligi bo‘yoqning suv yutishining kamayishi, ko‘piklanishning yo‘qolishi, bo‘yoq sirt yaltiroqligining saqlanishi barobarida oquvchanligining kuchayishi hisobiga nusxalarning sifatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

9-10-jadvallar ma‘lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoqda kislorodning miqdori 21.63% ga kamroq. Bosma bo‘yog‘ining tarkibida kislorod miqdorining kam bo‘lishi emulsiyalanish darajasini, ya‘ni suvni yutish darajasini aniqlaydi, metall pigmentlarning oksidlanishi (yaltiroqlikning yo‘qotilishi) xavfini bartaraf qiladi va metallashtirilgan bo‘yoqlar uchun maxsus qo‘shimchalardan foydalanishga zarurat qoldirmaydi.

9-jadval

Bo‘yoqlar tarkibining elementli tahlili, mass.%

Elementlar	Pantone Silver 877 (Xitoy) bo‘yog‘i			
	Chiziqli massa, %	Atomli massa, %	Chiziqli massa, %	Atomli massa, %
makroelementlar				
S-K	47.89±0.04	59.12±0.05	43.91±0.03	54.96±0.04
O-K	34.79±0.05	32.25±0.05	40.23±0.06	37.80±0.05
Al-K	4.05±0.01	2.22±0.01	3.00±0.01	1.67±0.01
Si-K	9.01±0.02	4.76±0.01	4.15±0.01	2.22±0.01
Ca-K	3.67±0.01	1.36±0.00	8.14±0.02	3.05±0.01
mikroelementlar				
Mg-K	0.20±0.00	0.12±0.00	0.22±0.00	0.14±0.00
S-K	0.11±0.00	0.05±0.00	0.13±0.00	0.06±0.00
Cl-K	0.28±0.00	0.12±0.00	0.23±0.00	0.10±0.00
Summa	100,0			

10-jadval

Bo‘yoqlar tarkibining elementli tahlili

Elementlar	Muqobil xomashyodan tayyorlangan bo‘yoq			
	Elementli chiziqli massasi, %	Elementning atomli massasi, %	Elementning chiziqli massasi, %	Elementning atomli massasi, %
makroelementlar				
C-K	50.95±0.04	63.67±0.05	47.41±0.05	59.30±0.06
O-K	25.96±0.05	24.35±0.04	32.82±0.07	30.82±0.06
Al-K	10.68±0.02	5.94±0.01	7.37±0.02	4.11±0.01
Si-K	7.61±0.01	4.07±0.01	5.97±0.02	3.19±0.01
Ca-K	3.87±0.01	1.45±0.00	5.37±0.02	2.01±0.01
mikroelementlar				
Mg-K	0.56±0.00	0.35±0.00	0.42±0.01	0.26±0.00
Na-K	0.08±0.00	0.05±0.00	0.16±0.01	0.10±0.00
C-K	0.05±0.00	0.03±0.00	0.10±0.00	0.05±0.00

Navbatdagi bosqichda tajribalarni minimal tarzda amalga oshirgan holda bo‘yoqning talab qilingan xossalari ta’minlash uchun matematik statistika usullari yordamida texnologik jarayonning ratsional parametrlari aniqlandi. Tuslarning o‘shishi tadqiqot obyekti va optimallashtirish mezonini bo‘lib xizmat qildi. Ortiqcha bosim, bo‘yoqning past qovushqoqligi, bosiluvchi materialning yuza xossalari tufayli bo‘yoqning bosiluvchi elementlarning chekkalariga oqib kirishi tuslar o‘shishining sababi hisoblanadi. Quyidagi variatsiyalanuvchi faktorlar asosiy sifatida tanlandi: kanifolning qo‘shilishi foizi (%), bo‘yoqning qovushqoqligi ($Pa \cdot s$); qog‘ozning massasi (g/m^2) (11-jadval).

11-jadval

Asosiy faktorlar va variatsiyalash darajalari

Faktorlarning nomlari va belgilanishi	Variatsiyalash darajalari			Variatsiyalash intervallari Δ
	(-) x_{\min}	(+) x_{\max}	(0) x_0	
Kanifolni qo‘shish foizi $K - x_1, \%$	3,0	5,0	4,0	1,0
Bo‘yoqning qovushqoqligi $V - x_2, Pa \cdot s$	85	95	90	5,0
Qog‘ozning massasi $M - x_3, g/m^2$	130	210	170	40,0

Tajriba natijalarini matematik qayta ishlashda kodlangan o‘zgaruvchilarga ega regressiya tenglamalari olindi:

$$y = 0,422 - 0,025x_1 + 0,0068x_2 - 0,007x_3$$

faktorlarning kodlangan qiymatlaridan x_1, x_2, x_3 natural qiymatlarga o‘tgan holda tuslar o‘shishining keltirilgan faktorlarga bog‘liqligiga ega bo‘lamiz. Faktorlarning kodlangan qiymatlari quyidagi bog‘liqliklar orqali natural qiymatlar bilan bog‘liq:

$$x_1 = \frac{K - K_0}{\varepsilon_1} = \frac{K - 4}{1}; \quad x_2 = \frac{V - V_0}{\varepsilon_2} = \frac{V - 90}{5}, \quad x_3 = \frac{M - M_0}{\varepsilon_3} = \frac{M - 170}{40}$$

bu yerda K_0, V_0, M_0 – faktorlarning natural ifodalardagi asosiy darajalari; $\varepsilon_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3$ – faktorlarni variatsiyalash intervallari.

Qayta o‘zgarishlarni amalga oshirgan holda yakuniy ko‘rinishda ifodalaymiz

$$\Delta S = 0,370 - 0,025K + 0,00136V - 0,000175M$$

Tenglama adekvat, tuslar o‘shish bo‘yoqning xossalari (bog‘lovchining miqdori va qovushqoqligi) va qog‘ozning massasiga bog‘liqligini bayon qiladi. Chop etish jarayonining barqarorligini prognozlash uchun interpolatsion formula sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ma’lum massaga ega qog‘ozdan foydalanishda va kanifolni qo‘shishning ma’lum miqdorlarida va bo‘yoqning ma’lum qovushqoqligida tuslarning o‘shishi sezilarli darajada o‘zgarmagan holda tasvirlarni hosil qilish sifatini prognozlash mumkin, ya’ni nusxadagi rang diapazonining asl nusxaga o‘xshashligi yoki mosligi ta’minlanadi. Muqobil xomashyodan tayyorlangan 1 tonna metallashtirilgan bo‘yoqdan foydalanishda korxonaning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi o‘rtacha 2560.0 ming so‘mni tashkil qiladi.

XULOSA

«Metallashtirilgan bo‘yoqlarni modifikatsiyalash orqali qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini yaxshilash» mavzusi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarishda metallarni imitatsiya qiluvchi metallashtirilgan bosma bo‘yoqlaridan foydalanish qalbakilashtirishdan

himoyalashning samarali usuli hisoblanadi. Matbaachilik korxonalarini bo'yoqlar bilan to'liq ta'minlash uchun arzon va muqobil xomashyodan foydalanish hisobiga uni ishlab chiqarish hajmini oshirish talab qilinadi.

2. Mahsulot importini qisqartirish, shuningdek, davlatning valyuta sarflarini ratsionallashtirish uchun tarkibida gilos daraxti qatroni, zig'ir va soya moyi, mikrokalsit, alyuminiy kukuni, alkid laki aralashmasi mavjud bo'lgan metallashtirilgan bo'yoq olish usuli ishlab chiqilgan.

3. Gilos daraxti qatronidan tayyorlangan metallashtirilgan bo'yoq tarkibini IQ-spektroskopik tahlil qilish uning tarkibi import bo'yoqlar tarkibiga o'xshashligini ko'rsatdi.

4. Bog'lovchi modda sifatida gilos daraxti qatronidan foydalanilgan metallashtirilgan bo'yoqlarning struktura-mexanik va reologik xossalarini solishtirma tahlil qilish ularning xossalar bo'yicha sanoat darajasida ishlab chiqarilgan bo'yoqlarga va chop etish jarayonining texnik talablariga mosligini ko'rsatib berdi.

5. Metallashtirilgan bo'yoq tarkibida gilos daraxti qatronidan foydalanish yetarlicha bo'yoq ko'chirilishini ta'minladi, chunki ajralish koeffitsiyenti 0,5 gacha bo'lib, buch chop etishda ideal sharoit hisoblanadi.

6. Bo'yoqning bosma-texnik xossalarini majmuaviy baholash shuni ko'rsatdiki, gilos daraxti smolasi 3% qo'shilganda rang tusining to'yinganligi ta'minlanadi (0,45), metallashtirilgan bo'yoqlar uchun Texnik talablar TT004.03 bo'yicha yuqori darajada yaltiratilgan bo'rlangan qog'ozlarda optik zichlik 0,55-0,70, uskuna silliqigidagi ofset qog'ozlarda – 0,45-0,60.

7. SEM va EDS-tahlildan foydalanib qog'ozning yuza qatlamida bosma bo'yog'i elementlarining taqsimlanishini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, muqobil xomashyodan tayyorlangan bo'yoqda kislorodning miqdori 21.63% ga kamroq. Bosma bo'yog'ining tarkibida kislorod miqdorining kam bo'lishi emulsiyalanish darajasini, ya'ni suvni yutish darajasini aniqlaydi, metall pigmentlarning oksidlanishi (yaltiroqlikning yo'qotilishi) xavfini bartaraf qiladi va metallashtirilgan bo'yoqlar uchun maxsus qo'shimchalardan foydalanishga zarurat qoldirmaydi.

8. Matematik statistika usullaridan foydalanib kanifolni qo'shish foizini oshirish massasi 210 g/m² bo'lgan qog'ozda qovushqoqligi 85 Pa·s bo'lgan bo'yoqlarda tuslar o'sishining kamayishiga xizmat qilishi aniqlangan.

9. Muqobil xomashyodan tayyorlangan 1 tonna metallashtirilgan bo'yoqdan foydalanishda korxonaning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi 2560,0 ming so'mni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

АБДИРАХМАНОВА ДОНО ИКРАМОВНА

**УЛУЧШЕНИЕ КАЧЕСТВА ПЕЧАТИ УПАКОВОЧНОЙ ПРОДУКЦИИ
МОДИФИКАЦИЕЙ МЕТАЛЛИЗИРОВАННЫХ КРАСОК**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.4.PhD/T5093.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Бабаханова Халима Абишевна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шин Илларион Георгиевич
доктор технических наук, профессор

Громько Ирина Григорьевна
кандидат технических наук, доцент
(Республика Беларусь)

Ведущая организация:

Бухарский инженерно-технологический институт

Защита диссертации состоится 17 апреля 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж аудитории 222, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована № 230). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации размещен на сайте 17 апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки от 17 апреля 2025 года).



Х.Х.Камилова

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней, д.т.н.

А.З.Маматов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней, д.т.н.

Ш.Ш.Хакимов

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире бурное развитие полиграфической отрасли характеризуется объемом выпуска печатной продукции, что по данным статистики составляет более 52 млрд. долларов. Среди них большой сегмент – более 35 % принадлежит упаковочной продукции, так как любой промышленный продукт нужно защитить от повреждений и потерь при транспортировке, хранении, реализации. Помимо этого качественная упаковка является элементом рекламы при продвижении товара. Использование современных технологий отделки, комбинации разных видов и способов печати способствует обеспечению стабильного качества и защитных элементов от фальсификации. Это является востребованным, так как по данным статистики увеличивается объем фальсифицированных товаров ведущих мировых брендовых компаний США (20%); Италия (15%); Швейцария и Франция (12%); Германия и Япония (8%). Для производства упаковочной продукции к эффективным и экономичным способам печати для защиты от фальсификации относится печать металлизированными красками, удачно имитирующих благородные металлы, не требующих специальных операций и дополнительных настроек печатной машины при подготовке к печати тиража.

В мире проводятся широкомасштабные научно-исследовательские работы по обеспечению качества печати упаковочной продукции при использовании современных способов печати и различных видов защиты, таких как УФ-красители, ИК-красители, термочувствительные красители, флуоресцентные, светочувствительные краски, микрографика, гильошные элементы, скрытое изображение, тангирные сетки, конгревное тиснение, припрессовка фольги, голограмма, высека, ламинирование, лакирование. В этом направлении разработаны и совершенствованы технологии одноступенчатой печати металлизированными красками, что в свою очередь требует увеличения объема производства красок, улучшения их печатно-технических свойств за счет постоянного обновления их состава в зависимости от способа печати и поверхностных свойств запечатываемого материала.

В республике осуществляются комплексные меры по улучшению качества воспроизведения упаковочной продукции при использовании современных методов печати и автоматизированных поточных линий печатных процессов, увеличению производства конкурентноспособной и ориентированной на экспорт печатной продукции. Стратегией развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы определены важные задачи по «Продолжению реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличению доли промышленности в валовом внутреннем продукте и рост объема производства промышленной продукции в 1,4 раза»¹. При выполнении этой задачи достигнуты заметные результаты, одним из которых является разработка программы локализации производства импортируемого сырья (бумаги, картона, краски и проклеивающих веществ)

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О стратегиях развития нового Узбекистана, рассчитанной на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 года

для обеспечения внутреннего рынка местным сырьем для снижения себестоимости полиграфической продукции.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 13 сентября 2017 года №ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», от 16 марта 2020 года №ПП-4660 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию издательской и полиграфической сферы», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в Республике Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики по направлению: П. «Энергетика, энергия, ресурсосбережение».

